



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

AHOLI DAROMADLARI HUDUDIIY TABAQALANISHI VA "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI: STATISTIK-EKONOMETRIK TAHLIL

Mo'ydinov Muhammadxon Yaxyoxon o'g'li

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchi,
Farg'ona davlat universiteti

Email: muhammadxonmuydinov@gmail.com

Tel: +998912825246

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasining 14 ma'muriy-hududiy birligi bo'yicha 2010–2025-yillarni qamrab oluvchi aholi daromadlari hududiy tabaqalanishi statistik va ekonometrik usullar yordamida tahlil qilinadi hamda olingan natijalar "O'zbekiston — 2030" strategiyasining barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishga oid ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liq holda talqin etiladi. Variatsiya koeffitsienti va Theil(L) indeksi asosidagi hisob-kitoblar hududlararo tabaqalanishning 2018–2025-yillarda sezilarli kuchayganini (mos ravishda 32,6%dan 44,9%gacha va 0,046dan 0,080gacha) ko'rsatdi. Fixed Effects panel regressiya modeli investitsiya elastikligining 0,677ga tengligini ($R^2=0,934$) aniqladi, k-means va Ward klasterlash usullari esa Toshkent shahrini alohida "poytaxt-anomaliya" klasteri sifatida ajratdi. Tadqiqot "O'zbekiston — 2030" strategiyasining muvozanatli hududiy rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, hududiy tabaqalanish, variatsiya koeffitsienti, Theil indeksi, panel regressiya, klaster tahlili, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, barqaror rivojlanish.

REGIONAL DIFFERENTIATION OF POPULATION INCOMES AND THE "UZBEKISTAN — 2030" STRATEGY: A STATISTICAL-ECONOMETRIC ANALYSIS

Muydinov Muhammadkhon Yakhyokhon ugli

PhD Candidate in Economics, Fergana state university

Annotation. This thesis analyzes the regional differentiation of population incomes across the 14 administrative-territorial units of the Republic of Uzbekistan over 2010–2025 using statistical and econometric methods, and interprets the findings in relation to the priorities of the "Uzbekistan — 2030" Strategy for sustainable and inclusive economic growth. Calculations based on the coefficient of variation and the Theil(L) index show that inter-regional differentiation increased substantially between 2018 and 2025 (from 32.6% to 44.9%, and from 0.046 to 0.080, respectively). A Fixed Effects panel regression model estimated an investment elasticity of 0.677 ($R^2=0.934$), while k-means and Ward clustering methods identified Tashkent city as a distinct "capital-anomaly" cluster. The study concludes with practical recommendations aimed at achieving the balanced regional development goals of the "Uzbekistan — 2030" Strategy.

Keywords: international standards, ISO 9001, quality management, business entities, export potential, product quality, certification, competitiveness, innovative development, integrated management system,

DOI: <https://doi.org/10.47390/ym-dif-y2026v2i13/n11>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakat taraqqiyotining navbatdagi besh yilligini belgilovchi asosiy strategik hujjat bo'lib, u 5 ta ustuvor yo'nalish doirasida 100 ta maqsadga erishishni ko'zda tutadi, jumladan barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish ustuvor vazifa etib belgilangan [1]. 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmon bilan ushbu strategiyaning ijrosi yangilangan bo'lib, 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar doirasida islohotlarni

izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqish ta'minlangan [2]. So'nggi o'n besh yil davomida O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror, yuqori su'ratlarda o'sib bordi: aholi jon boshiga umumiy nominal daromadlar 2010–2025-yillarda 13,6 baravar oshdi. Biroq barqaror iqtisodiy o'sishning o'zi hududlar o'rtasida daromadning bir tekis taqsimlanishini kafolatlamaydi — aksincha, tezkor makroiqtisodiy o'sish sharoitida hududlararo daromad tafovutlarining kengayishi xavfi mavjud. Shu sababli, aholi daromadlari hududiy tabaqalanishini statistik jihatdan chuqur o'rganish va uning asosiy omillarini aniqlash "O'zbekiston — 2030" strategiyasining muvozanatli va inklyuziv rivojlanish maqsadlariga erishish nuqtai nazaridan alohida dolzarblik kasb etadi.

Muammoning qo'yilishi. Hududiy daromad tengsizligining nazariy asoslari jahon iqtisodiy fikrida uch yo'nalishda talqin etiladi: neoklassik konvergensiya nazariyasi hududlar orasidagi daromad farqlarining vaqt o'tishi bilan o'z-o'zidan qisqarishini bashorat qilsa, G.Myrdalning kumulyativ rivojlanish konsepsiyasi va P.Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi, aksincha, agglomeratsiya effektlari hisobiga tafovutlarning kuchayishi mumkinligini asoslaydi [6]. S.Kuznets tomonidan taklif etilgan daromadlar tengsizligi nazariyasi rivojlanishning dastlabki bosqichlarida tengsizlikning oshishini, keyinchalik esa pasayishini bashorat qilgan bo'lsa-da [7], B.Milanovic tomonidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar ushbu qonuniyatning universal emasligini, tengsizlik dinamikasi ko'p jihatdan milliy va hududiy institutsional omillarga bog'liqligini ko'rsatdi [8]. Rossiya va O'zbekiston olimlari tomonidan ham hududiy tengsizlikni o'lchash metodologiyasi faol ishlab chiqilgan [10; 11]. Shunga qaramay, O'zbekiston hududlari bo'yicha uzoq muddatli (2010–2025) panel ma'lumotlar asosida zamonaviy ekonometrik va klasterlash usullarini birgalikda qo'llovchi, natijalarini milliy taraqqiyot strategiyasi bilan bog'lab tahlil qiluvchi kompleks tadqiqotlar yetarli emas — bu mazkur tezisning ilmiy bo'shlig'ini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tezis muallif tomonidan bajarilgan "Aholi daromadlari hududiy tabaqalanishining statistik tahlili" mavzusidagi PhD dissertatsiyasi natijalariga asoslanadi [4]. Tadqiqot obyekti — O'zbekiston Respublikasining 14 ma'muriy-hududiy birligi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahri) bo'yicha 2010–2025-yillarni qamrab oluvchi panel ma'lumotlar bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlar portali hisob-kitoblariga asoslanadi [3]. Hududiy tabaqalanish darajasini o'lchash uchun variatsiya koeffitsienti va H.Theil tomonidan axborot entropiyasi nazariyasi asosida taklif etilgan Theil(L) indeksi qo'llanildi [9]; bu ko'rsatkich C.Gini tomonidan 1912-yilda ishlab chiqilgan an'anaviy Gini koeffitsientidan farqli o'laroq mukammal additiv dekompozitsiyalanish xususiyatiga ega [5]. Tabaqalanishning asosiy omillarini aniqlash uchun Pooled OLS, Fixed Effects va Random Effects panel regressiya modellari, ularning to'g'ri spetsifikatsiyasini tekshirish uchun Hausman testi, hududlarni tipologiyalash uchun esa k-means va Ward ierarxik klasterlash usullari qo'llanildi. Barcha hisob-kitoblar Python dasturlash tilining NumPy va SciPy kutubxonalari yordamida amalga oshirildi.

Natijalar va tahlil. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, 14 hudud bo'yicha daromad darajasining variatsiya koeffitsienti 2018-yildagi 32,6 foizdan 2025-yilga kelib 44,9 foizgacha, Theil(L) indeksi esa 0,046dan 0,080gacha oshdi — bu hududlararo tabaqalanishning so'nggi yillarda sezilarli kuchayganidan dalolat beradi [4; 45-b.]. Ikki metodologik jihatdan farqli ko'rsatkichning bir xil yo'nalishda harakat qilishi natijaning statistik barqarorligini tasdiqlaydi.

Ko'rsatkich	Qiymat
Variatsiya koeffitsienti (2018 → 2025)	32,6% → 44,9%
Theil(L) indeksi (2018 → 2025)	0,046 → 0,080
Variatsiya koeffitsienti, Toshkentsiz (2018–2025)	22–28% oralig'ida barqaror
Investitsiya elastikligi (Fixed Effects, β_1)	0,677 ($p < 0,001$)
R^2 (within), FE modeli	0,934
Hausman testi (χ^2)	25,32 ($p < 0,0001$)
Klaster tipologiyasi (k-means / Ward)	3 guruh: poytaxt-anomaliya, sanoat-investitsion, o'rta-agrar

1-jadval. Tadqiqotning asosiy statistik-ekonometrik natijalari (Manba: [4] asosida muallif tomonidan tuzilgan).

Ayniqsa diqqatga sazovor natija — Toshkent shahrini hisobga olmagan holda hisoblangan variatsiya koeffitsienti butun tahlil davrida 22–28 foiz oralig'ida barqaror qolgani bo'ldi, bu esa umumiy tabaqalanishning kuchayishi asosan poytaxt shahri va qolgan hududlar o'rtasidagi tafovut hisobiga yuz berayotganini, viloyatlarning o'zaro nisbiy tabaqalanishi esa ancha barqaror ekanligini statistik jihatdan isbotlaydi [4; 78-b.]. Fixed Effects panel regressiya modeli bo'yicha investitsiya darajasining hududiy daromadga ta'sir elastikligi 0,677ga teng bo'lib ($R^2_{\text{within}}=0,934$), Hausman spetsifikatsiya testi ($\chi^2=25,32$; $p < 0,0001$) Random Effects modelining nokonsistentligini va Fixed Effects modelining to'g'ri spetsifikatsiya ekanligini tasdiqladi [4; 112-b.]. Ikki mustaqil klasterlash usuli (k-means va Ward) O'zbekiston hududlarini uch tipologik guruhga — “poytaxt-anomaliya” (Toshkent shahri, yagona a'zo), “sanoat-investitsion” (Navoiy, Buxoro, Toshkent viloyati) va “o'rta-agrar” (qolgan 10 hudud) — obyektiv tarzda ajratdi [4; 128-b.].

Muhokama: “O'zbekiston — 2030” strategiyasi bilan bog'liqlik. Olingan natijalar “O'zbekiston — 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligi ustuvor yo'nalishi bilan bevosita bog'liqdir [1]. Birinchidan, investitsiya elastikligining yuqori qiymati (0,677) shuni ko'rsatadiki, strategiyada belgilangan investitsion faollikni oshirish maqsadlari, agar ular hududlar bo'yicha tengsiz taqsimlansa, mavjud hududiy tabaqalanishni yanada kuchaytirishi mumkin; demak, investitsiya siyosati hududiy tenglik mezonlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim. Ikkinchidan, poytaxt-effektining barqaror saqlanib qolishi shuni ko'rsatadiki, umummilliy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi hududiy tengsizlikni avtomatik ravishda bartaraf etmaydi — bu “O'zbekiston — 2030” strategiyasi ijrosi monitoringi doirasida hududiy kesimdagi ajratilgan ko'rsatkichlarni alohida kuzatib borish zaruratini keltirib chiqaradi [2]. Uchinchidan, tadqiqotda qo'llanilgan statistik-ekonometrik metodologiya (variatsiya koeffitsienti, Theil indeksi, panel regressiya, klasterlash) strategiya ijrosini baholash uchun takrorlanuvchi va obyektiv monitoring instrumenti sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi: (1) “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida “o'rta-agrar” klasterga kiruvchi hududlar (xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) uchun maqsadli investitsiya dasturlarini ustuvor tarzda ishlab chiqish, chunki investitsiya darajasi hududiy daromadning eng kuchli statistik determinanti (elastiklik $\approx 0,68$) hisoblanadi; (2) Toshkent shahri va qolgan hududlar o'rtasidagi investitsion tafovutni qisqartirishga qaratilgan

maxsus mexanizmlarni joriy etish, chunki aynan shu tafovut umumiy hududiy tabaqalanishning asosiy manbai hisoblanadi; (3) Navoiy va Buxoro viloyatlaridagi muvaffaqiyatli “sanoat-investitsion” rivojlanish modelini geografik va resurs jihatidan o'xshash hududlarga moslashtirilgan tarzda tatbiq etish; (4) Milliy statistika qo'mitasi tomonidan hududiy Gini va Theil ko'rsatkichlarini yillik rasmiy tarzda hisoblab, “O'zbekiston — 2030” strategiyasi monitoring tizimiga kiritish. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi mamlakatning barqaror va muvozanatli hududiy rivojlanishini ta'minlashga, shu orqali “O'zbekiston — 2030” strategiyasining aholi farovonligini oshirish bo'yicha asosiy maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ochiq ma'lumotlar portali. “Aholi turmush darajasi” bo'limi. Murojaat sanasi: 2026-yil iyun. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
4. M.Mo'ydinov. Aholi daromadlari hududiy tabaqalanishining statistik tahlili (O'zbekiston Respublikasi misolida): iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2026. — 140 b. (qo'lyozma huquqida).
5. Gini, C. (1912). Variabilità e mutabilità. Bologna: Tipografia di Paolo Cuppini.
6. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. *Journal of Political Economy*, 99(3), 483–499.
7. Kuznets, S. (1955). Economic Growth and Income Inequality. *The American Economic Review*, 45(1), 1–28.
8. Milanovic, B. (2016). *Global Inequality: A New Approach for the Age of Globalization*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. Theil, H. (1967). *Economics and Information Theory*. Amsterdam: North-Holland Publishing Company.
10. Жеребин В.М., Романов А.Н. Уровень жизни населения. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. — 592 с.
11. Зубаревич Н.В. Регионы России: неравенство, кризис, модернизация. — М.: Независимый институт социальной политики, 2010. — 160 с.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.